Masharipov Jasur Rozmedovich
MEHMONXONALARNING ONLAYN REPUTATSIYASINI KOMPLEKS BAHOLASHDA MORI INDEKSIDAN FOYDALANISH 377
Abdulazizova Xushnoza Nayabovna
SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI XODIMLAR FAOLIYATINI BAHOLASH TIZIMLARIDA IDROK ETILGAN ADOLATNING O‘RNI 380
Akramova Nilufar Beknazar qizi
O‘ZBEKISTONDA SPELEOTURIZM OBYEKTLARINI BOSHQARISH MODELI 384
Djalalov Shaxrux Anvarovich
LOYIHALARNI BOSHQARISHDA SOLIQQA TORTISH VA BUXGALTERIYA HISOBINING AHAMIYATI 387
Pirnazarova Madina Rustam qizi
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI KREDITLASH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH 389
Sh. Bayramova
SUN’IY INTELLEKT — TO‘QIMACHILIK KORXONASINING TASHKILIY-TEXNOLOGIK RESURSI SIFATIDA 392
Madrahimova Onajon Javlon qizi
XALQARO MEHNAT BOZORIGA O‘RTA BO‘G‘IN KADRLARNI TAYYORLASHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNING MEXANIZMLARI 394
Masharipov Farrux O‘tkirovich

O‘ZBEKISTON DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARINING IJROSI VA SOLIQ TUSHUMLARINING O‘RNI 401
Ashirbayev Odilbek Aminbayevich
O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING JORIY HOLATI VA ASOSIY MUAMMOLARI 404
Mo‘minjonov Anvarbek Sayfitdin o‘g‘li
SUN’IY INTELLEKT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARINING KREDIT PORTFELI RISKLARINI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH 407
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich
REGIONAL WAGE DISPARITIES IN UZBEKISTAN, 2017–2025: DIVERGENCE AT THE TOP, CONVERGENCE IN THE MIDDLE 418
O‘roqov Mamurali Odil o‘g‘li
AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA “DUE DILIGENCE” XIZMATINI ISHCHI HUJJATLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN BOSQICHMA-BOSQICH MODEL ASOSIDA TASHKIL ETISH 421
Sidiqov Dilmurod Xasanboy o‘g‘l
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH VA MIJOZLARGA XIZMAT KO‘RSATISH SIFATINI OSHIRISH 424
Parpiyeva Ra’no Abdurasulovna
KORXONALAR INVESTITSIYA FAOLLIGINI TA’MINLASHDA SOLIQLARNING

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

RAG‘BATLANTIRUVCHI ROLINI OSHIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI 427
Ilyasova Barno Axmadovna
TOVAR BELGILARIDAN TIJORAT MUOMALASIDA FOYDALANISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 432
Ermetova Shoira Xasanovna
ОЦЕНКА БАНКАМИ КРЕДИТОСПОСОБНОСТИ ФИЗИЧЕСКИХ ЛИЦ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ 436
Назарова Диера Бахадировна
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION RIVOJLANISHNI BOSHQARISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI 439
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA DAVLAT QARZI HAJMI VA TARKIBIY TUZILISHI: TASHQI VA ICHKI QARZ DINAMIKASI TAHLILI 442
Sayfitdinov Xasanboy Dilshodovich
IQTISODIY FANLAR PROFESSOR-O‘QITUVCHILARINI MASOFAVIY O‘QITISHGA TAYYORLASHNING TO‘RT BOSQICHLI TIZIMI:RAQAMLI PEDAGOGIKA TRENINGI VA KOMPETENSIYALAR DINAMIKASI 445
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi
IJTIMOIY XARAJATLARNI MOLIYALASHTIRISHNING ASOSIY MASALALARI 450
Tulyaganov Olim Rustamovich
TIJORAT BANKLARIDA KAPITAL YETARLILIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI: BAZEL III TAMOYILLARI ASOSIDAGI EMPIRIK TAHLIL 453
Xakimov Zoxid Norbo‘tayevich
IMPLEMENTATION AND APPLICATION OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS (IFRS) IN THE FINANCIAL SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: CHALLENGES AND PROSPECTS 458
Khattabov Temurbek Muzaffar Ugli
O‘ZBEKISTONDA BOLALI OILALARNI IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VOSITASI SIFATIDA 461
Asomiddinova Muzayyanxon Abdurahmon qizi
O‘ZBEKISTONDA QAYTA SUG‘URTA MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISH 467
Mirzoyev Sayfullo Fayzulloyevich
ЦИФРОВЫЕ И ПЕРСОНАЛИЗИРОВАННЫЕ КОММУНИКАЦИИ В ПРОДВИЖЕНИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ: РОЛЬ ДОВЕРИЯ И ВОСПРИНИМАЕМОЙ ЦЕННОСТИ 470
Умаров Шухрат Баходир угли
KEY AUDIT MATTERS AND THEIR CONSEQUENCES FOR FIRMS AND CAPITAL MARKETS 473
Alasgarli Farid
INSONGA YO‘NALTIRILGAN SUN’IY INTELLEKTNING XODIMLAR FAROVONLIGIGA TA’SIRI 476
Nazirjonova Marziaxon Xamidulla qizi
TIJORAT BANKLARIDA SANKSION NAZORAT VA AML/CFT TIZIMINING O‘ZARO INTEGRATSIYASI 479
Rustamov Sunnatillo Rustamovich
BIZNESNI TASHKIL ETISH JARAYONIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR HAMDA ULARNING YECHIMLARI 483
Jo‘rayev Jahongir Bahodir o‘g‘li
TA’LIM TURIZMIDA QAROR QABUL QILISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR VA UNING RIVOJLANISHINI BAHOLASH MEZONLARI 488
Zulxaynarov Samandar Ravshan o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA MEHNAT BOZORI VA DEMOGRAFIK JARAYONLARNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI 492
Niyozova Ruxsora Nurali qizi
TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGI VA DAVLAT BYUDJETI SIYOSATI O‘RTASIDAGI O‘ZARO BOG‘LIQLIK 496
M.Q. Maxmudova
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH 502
Yusubboyeva Mohinur Qudrat qizi
MODA INDUSTRIYASIDA INNOVATSION MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI 504
Abdumajitova Adolat Bahrom qizi
IQTISODIY SUDLARDA YARASHTIRUV VA MEDIATSIYA JARAYONLARIDA HUQUQLARNI SUISTE’MOL QILISHNING OLDINI OLISH HAMDA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR 507
Ungarov Akram Botirqul o‘g‘li
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ ВУЗА В УСЛОВИЯХ УСИЛЕНИЯ КОНКУРЕНЦИИ НА ПРИМЕРЕ ТГЭУ 511
Кахрамонова Азиза Шухрат кизи

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Джалилов Джамшид Ганиевич
IQTISODIYOTNING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASIDA RAQAMLASHTIRISHNING O‘RNI VA ASOSIY OMILLARI 514
Imomova Kamola Novfal qizi
DAVLAT IJTIMOIY SOHA MUASSASALARINING MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLASHTIRISH JARAYONI 519
Hasanov To‘lqin Axmatovich
HUDUDIY SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIFFERENSIAL TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI 522
Ravshanova Sevara Zafar qizi
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT SOHASIDA TOVAR BELGILARINING FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 525
Ermetova Shoira Xasanovna
MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINING JORIY HOLAT TAHLILI 530
Ziyodilloyev Xushnud Rahimboyevich
РАЗВИТИЕ БЕЗНАЛИЧНЫХ ПЛАТЕЖЕЙ КАК ФАКТОР СОКРАЩЕНИЯ ТЕНЕВОЙ ЭКОНОМИКИ И ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА УЗБЕКИСТАНА 534
Катаева Шаходат Баходировна
QARZ QIMMATLI QOG‘OZLARI – TIJORAT BANKLARI BARQAROR RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH VOSITASI 537
Tillayev Xurshidjon Sulaymon o‘g‘li
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON TIJORATNING IQTISODIY MEXANIZMLARIDAN FOYDALANISH YO‘NALISHLARI 541
Egamberdiyev Sanjar Shokir o‘g‘li
ESG TAMOYILLARINING SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI 544
Alimov Jamshid Bahriddin o‘g‘li
XALQARO PUL O‘TKAZMALARINING O‘ZBEKISTON MAKROIQTISODIY BARQARORLIGIGA TA’SIRI 547
Abirqulova Sohibjamol Normuxammad qizi
DAVLAT XARIDLARINI “YASHIL”LASHTIRISH JARAYONIDA O‘ZBEKISTONDA ME’YORIY ASOSLAR, O‘LCHASH MUAMMOLARI VA HAYOTIY SIKL XARAJATLARIGA ASOSLANGAN BAHOLASH YONDASHUVI 549
Israilova Soxiba To‘lqin qizi
O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA NAQDSIZ TO‘LOVLAR RIVOJLANISHI 553
Akramova Mahliyo Ibrohim qizi
DUAL TA’LIM ASOSIDA QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI 556
Rajapova Guldona Usman qizi
НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ОЦЕНИВАНИЯ 559
Ганиев Бехруз Ихтиёрович
AHOLI BANDLIGINI TARTIBGA SOLISHNING XORIJIY MODELLARI VA ULARNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI 559
Akbarova Malika Ilxomovna
ОХРАНА ТРУДА КАК ОСНОВА ОБЕСПЕЧЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ ЖИЗНЕДЕЯТЕЛЬНОСТИ ЧЕЛОВЕКА 561
Дониёрова Ф. А.
BUDJETLARARO TRANSFERTLAR TIZIMINI TASHKIL ETISHDA XORIJIY TAJRIBA, ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ULARDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI 564
Hakimov Feruz Xurshid o‘g‘li
THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN MODERNIZING THE NATIONAL ASSESSMENT SYSTEM 567
Ganiyev Bexruz Ixtiyorovich
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV KONFLIKTLARNI RAQAMLI MONITORING VA PROFILAKTIK BOSHQARUV ORQALI KAMAYTIRISH 573
Xolikova Saboxat Abdukarim qizi
TARKIBIY O‘ZGARISHLARNING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 577
Yoqubova (Sheraliyeva) Zilola Tura qizi
VENCHUR KAPITALINING IQTISODIYOTDA QO‘SHIMCHA QIYMAT YARATISHI 581
Abduraximova Shahruzaxon Sarvar qizi
AGROTURISTIK KLASTERLARNI STRATEGIK BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI 587
Yoriyeva Farangiz Murodilloyevna
ГАРМОНИЗАЦИЯ КЛАССИФИКАЦИИ И СТАТИСТИКИ ОТХОДОВ КАК УСЛОВИЕ ТРАНСГРАНИЧНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ 591

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Рахимова Комила Бахтиёровна
KORPORATIV OBLIGATSIYALAR – AKSIYADORLIK JAMIYATLARINI MOLIYALASHTIRISHNING MUQOBIL MANBAI 596
Jumatova Gulzar Maxmud qizi
MINTAQAVIY IQTISODIY INTEGRATSIYANING O‘ZBEKISTON HUDUDLARIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHGA TA’SIRI 600
Aliyeva Perizat Tazabay kizi
MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHDA FUNKSIONAL VALYUTA TUSHUNCHASI VA UNI HISOBGA OLISH 603
Kozimjonov Abrorbek
KORXONALARDA INVESTITSION QARORLARNI QABUL QILISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI 606
Habibullayev Jasurbek Kurbanbay o‘g‘li
АНАЛИЗ ИЗМЕНЕНИЯ ОБЪЁМА ЗАТРАТ В СФЕРЕ УСЛУГ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (2016–2025 ГОДЫ) 609
Мадрахимова Г. Р.
Мансурова М. Ё.
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH VA INVESTITSIYA FAOLLIGINI RAG‘BATLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 612
Fayziyeva Nilufar Shavkat qizi
YASHIL IQTISODIYOTDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA INVESTITSION LOYIHALARNI RIVOJLANTIRISH 615
Yesmurzaev Joldasbay Tangatarovich
QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDA ELEKTRON SAVDO INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 618
Saidkobil Murodov
TIJORAT BANKLARIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ORQALI OPERATSION SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO‘NALISHLARI 620
Xidirov Boboyor Davronovich
O‘ZBEKISTONNING XITOYDAN IMPORT TALABI VA SAVDO BALANSI TAQCHILLIGINING EKONOMETRIK TAHLILI 622
Xurramov Xumoyun Murod o‘g‘li
QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDA INSTITUTSIONAL INVESTORLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI 626
Istamov Shoxrux
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI 629
Giyayev Rustamjon Abdurasulovich
QURILISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMI: RAQAMLASHTIRISH VA INNOVATSION BOSHQARUV 632
Umarova Nargiza Mirakabarovna
КАЧЕСТВО АПТЕЧНЫХ ДАННЫХ КАК УСЛОВИЕ ФИНАНСОВО ОБОСНОВАННОГО ПРОГНОЗИРОВАНИЯ СПРОСА И УПРАВЛЕНИЯ ЗАПАСАМИ 635
Пулатова Фируза Сафар кизи
YASHASH VA UMUMIY OVQATLANISH XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI 638
Qudratova Shaxnoza Shuxrat qizi
SURXONDARYO VILOYATI TRANSPORT TARMOG‘I RAQOBATBARDOSHLIGINING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA’SIRI 641
Aymatov Sirojiddin To‘raqul o‘g‘li
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF BUDGET FUNDS UTILIZATION IN PUBLIC SECTOR ORGANIZATIONS 644
Aziza Shokirova
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI 647
Valiev Umid Gulamovich
IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINING IQTISODIY MOHIYATI, INSTITUTSIONAL MODELI VA DAVLAT IJTIMOIY SIYOSATIDAGI O‘RNI 650
Muxtorov Ulug‘bek Xayotjonovich
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI QO‘LLAB-QUVVATLASHDA MANZILLILIKNI TA’MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI 652
Axmadjanov Abrorbek Akbarjon o‘g‘li
O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA BIZNES RIVOJLANISHINI PANEL EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH 655
Saidova Marhabo Xabibullo qizi

O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA BIZNES RIVOJLANISHINI PANEL EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH

Saidova Marhabo Xabibullo qizi
Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tadqiqotchisi
E-mail: saidovamarhabo1991@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda O‘zbekistonning 14 hududi bo‘yicha 2010–2024-yillardagi 210 ta kuzatuvdan iborat balanslangan panel ma’lumotlari asosida biznes rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar ekonometrik baholangan. Tadqiqotda Pooled OLS, Fixed Effects (FE) va Random Effects (RE) modellari qiyoslanib, F-test, Breusch–Pagan LM va Hausman testlari yordamida FE modeli ishchi variant sifatida tanlangan. Multikollinearlikni kamaytirish maqsadida investitsiya, qurilish, aholi daromadlari, bandlik va eksportni qamrab olgan besh omilli model shakllantirilgan. Natijalar ushbu omillar bilan biznes rivojlanishi o‘rtasidagi statistik bog‘liqliklarni aniqlash imkonini bergan. Shuningdek, model diagnostikasi, hududiy xususiyatlar va natijalarni ehtiyotkor talqin qilish zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: panel ma’lumotlar, biznes rivojlanishi, ekonometrik modellashtirish, Fixed Effects, Random Effects, Hausman testi, multikollinearlik, elastiklik.

Abstract. This thesis examines the factors influencing business development across 14 regions of Uzbekistan using a balanced panel dataset comprising 210 observations for 2010–2024. The study compares Pooled Ordinary Least Squares (OLS), Fixed Effects (FE), and Random Effects (RE) models. Based on the F-test, Breusch–Pagan LM test, and Hausman test, the FE model is selected as the working specification. To reduce multicollinearity, a five-factor model incorporating investment, construction, household income, employment, and exports is developed. The results identify statistical relationships between these factors and business development. The study also emphasizes the importance of model diagnostics, regional heterogeneity, and cautious interpretation of econometric findings.

Keywords: panel data, business development, econometric modeling, Fixed Effects, Random Effects, Hausman test, multicollinearity, elasticity.

KIRISH

Hududiy biznes ko‘rsatkichlarida bir vaqtning o‘zida ikki xil manba — hududlar o‘rtasidagi farq va vaqt bo‘yicha o‘zgarish mavjud. Oddiy kesim regressiyasi hududga xos doimiy xususiyatlarni hisobga olmasligi, oddiy vaqt qatori esa hududlarning geterogenligini yo‘qotishi mumkin. Shu sababli tadqiqotda 14 hududning 2010–2024-yillardagi 15 yillik ma’lumotlari 210 kuzatuvli balanslangan panel sifatida birlashtirilgan. Maqsad biznes ishlab chiqarish hajmi bilan tadbirkorlik faolligi, investitsiya, qurilish, savdo, aholi daromadlari, bandlik va eksport o‘rtasidagi shartli bog‘liqlikni hududiy individual effektlar hisobga olingan holda baholashdir [3].

Ma’lumotlar tarkibi. Natijaviy Y ko‘rsatkichi kichik tadbirkorlik subyektlari ishlab chiqargan sanoat mahsulotlari va tegishli xizmatlar hajmi sifatida berilgan. Tushuntiruvchi omillar: X1 — faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni; X2 — asosiy kapitalga investitsiyalar; X3 — kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari; X4 — ulgurji savdo hajmi; X5 — aholi jon boshiga umumiy daromad; X6 — kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo‘lganlar soni; X7 — kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport hajmi. Logarifmik transformatsiya koeffitsiyentlarni elastiklik sifatida talqin qilish, dispersiyani barqarorlashtirish va qiyshiq taqsimot ta’sirini kamaytirish uchun qo‘llanadi [5].

Model tanlash. Pooled OLS barcha hudud va yillarni bitta umumiy regressiya sifatida baholaydi. FE modeli vaqt bo‘yicha o‘zgarmaydigan hududiy individual xususiyatlarni alohida erkin hadlar orqali nazorat qiladi. RE modeli esa hududiy effektni tasodifiy komponent sifatida ko‘radi. Model tanlash natijalarida F-test FE modelining Pooled OLS modelidan afzalligini ($p < 0,001$), Breusch–Pagan LM testi RE modelining Pooled OLS modelidan afzalligini ($p < 0,01$), Hausman testi esa logarifmik spetsifikatsiyada FE yondashuvini REga nisbatan ishchi variant sifatida qo‘llab-quvvatlaganini ($p < 0,001$) ko‘rsatadi. Shu bilan birga, model tanlovi diagnostik tekshiruvlar bilan davom ettirilishi kerak.

1-jadval.
Panel ekonometrik modellarni tanlash va diagnostika testlari natijalari (2010–2024-yillar)

Diagnostika / mezon	Hisobot natijasi	Talqin
F-test	$p < 0,001$	FE Pooled OLSdan afzal
Breusch–Pagan LM	$p < 0,01$	RE Pooled OLSdan afzal
Hausman (log model)	$p < 0,001$	FE ishchi variant sifatida afzal
Shapiro–Wilk (qoldiqlar)	$p = 0,0004$	Qoldiqlar normalligi haqidagi gipoteza rad etilgan
Kesimlararo bog‘liqlik (CD)	$p < 0,001$	Kesimlararo bog‘liqlik aniqlangan
Geteroskedastiklik BP	$p = 0,9895$	Mazkur testda H0 rad etilmagan
Serial bog‘liqlik	DW natijasining panelga mosligi tasdiqlanmagan	Panel ma’lumotlariga mos serial bog‘liqlik testi qayta bajarilishi zarur

Manba: Muallif ishlanmasi.

Multikollinearlik diagnostikasida ayrim regressorlarda kuchli juft bog‘liqlik qayd etilgan: X3 — qurilish va X4 — ulgurji savdo o‘rtasida $r \approx 0,92$, X2 — investitsiya va X3 o‘rtasida ham yuqori korrelyatsiya ko‘rsatilgan. Bunday vaziyat koeffitsiyentlarning barqarorligiga ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli X1 va X4 chiqarilgan besh omilli muqobil model ishchi spetsifikatsiya sifatida keltirilgan. Biroq omillarni chiqarishning o‘zi serial yoki kesimlararo bog‘liqlik muammosini avtomatik bartaraf etmaydi; yangi model uchun ham diagnostika takrorlanishi zarur.

Qayta qurilgan FE tenglamasi quyidagicha berilgan:

$$\ln(Y) = \alpha_i + 0,0495 \cdot \ln X2 + 0,1296 \cdot \ln X3 + 1,0269 \cdot \ln X5 + 0,7062 \cdot \ln X6 + 0,0172 \cdot \ln X7 + \varepsilon.$$

Log-log shaklida ushbu koeffitsiyentlar o‘lchovsiz elastiklikdir. Boshqa omillar o‘zgarmaganda investitsiyaning 1 foiz yuqori qiymati Y ning taxminan 0,05 foiz, qurilishning 1 foiz yuqori qiymati 0,13 foiz, aholi daromadlarining 1 foiz yuqori qiymati 1,03 foiz, bandlikning 1 foiz yuqori qiymati 0,71 foiz, eksportning 1 foiz yuqori qiymati 0,02 foiz yuqori bo‘lishi bilan bog‘langan. Bu talqin sababiy ta’sir emas; endogenlik, standart xatolar va model identifikatsiyasi alohida tekshirilishi kerak.

Dastlabki yetti omilli va qayta qurilgan besh omilli FE modellari qiyoslanganda R^2 mos ravishda 0,9658 va 0,9641, tuzatilgan R^2 0,9622 va 0,9607 bo‘lgan. RMSE 0,1857 va 0,1902, MAE 0,1398 va 0,1418 ni tashkil etgan. AIC va BIC ko‘rsatkichlari ham dastlabki model foydasiga kichikroq qiymat bergan. Demak, regressorlardan ikkitasini chiqarish modelni avtomatik ravishda “optimal” qilmaydi. Soddalik, diagnostika, koeffitsiyentlar barqarorligi va tanlanmadan tashqaridagi prognoz sifati birgalikda baholanishi lozim.

Panel ma’lumotlarida kesimlararo bog‘liqlikning $p < 0,001$ darajasida aniqlanishi muhim. Hududlar umumiy makroiqtisodiy shoklar, mamlakat miqyosidagi iqtisodiy siyosat choralari, narxlar va savdo kanallari orqali o‘zaro bog‘langan bo‘lishi mumkin. Shu sababli oddiy standart xatolar yetarli bo‘lmasligi, umumiy yil effektlari, klasterlangan yoki boshqa robast inferensiya usullari talab qilinishi mumkin. Birinchi avlod birlik ildiz testlarining turlicha natijalarini ham kesimlararo bog‘liqlik mavjud sharoitda yakuniy I(0)/I(1) tasnifi sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas.

Amaliy ahamiyati. Panel yondashuvi biznes rivojlanishidagi hududiy va vaqt omillarini bir modelda ko‘rish imkonini beradi. Natijalarga ko‘ra, daromad va bandlik koeffitsiyentlari besh omilli ishchi modelda nisbatan katta, investitsiya va eksportniki kichikroq. Biroq amaliy boshqaruv tavsiyalarini ishlab chiqishda faqat koeffitsiyentlarning kattaligiga asoslanish yetarli emas. Narx bazasi, omillarning endogenligi, hududiy geterogenlik va qoldiq xususiyatlari tekshirilganidan keyingina natijalar boshqaruv qarorlariga ehtiyotkorlik bilan tatbiq etiladi.

Panelning statistik xususiyatlari. 2010–2024-yillar bo‘yicha 14 hududning 15 yillik kuzatuvlari hudud va vaqt o‘lchamlarini birgalikda tahlil qilish imkonini beradi. Tavsifiy tahlil o‘zgaruvchilarda yuqori geterogenlik, o‘ngga qiyshiq taqsimot va ekstremal qiymatlar mavjudligini ko‘rsatadi. Juft korrelyatsiyada Y va ayrim regressorlar o‘rtasida kuchli bog‘liqlik, xususan, X3 bilan $r \approx 0,92$ va X2 bilan $r \approx 0,90$ qayd etilgan. Ushbu natijalar o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi statistik bog‘liqlikni ifodalaydi, biroq sababiy ta’sirni isbotlamaydi. Multikollinearlik darajasini baholash uchun esa tushuntiruvchi o‘zgaruvchilarning o‘zaro bog‘liqligini alohida tekshirish zarur. Panel modeli hududiy individual effektlarni nazorat qilish orqali bir qator kuzatilmaydigan doimiy farqlarni

ajratishga yordam beradi, lekin vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchi endogen omillar muammosi alohida identifikatsiyani talab qiladi [3].

Diagnostika natijalari. Model tanlashdan keyingi diagnostika ishning muhim qismidir. Diagnostik hisob-kitoblarda Breusch–Pagan testi bo‘yicha gomosedastiklik haqidagi nol gipoteza p = 0,9895 qiymatda rad etilmagan, Shapiro–Wilk bo‘yicha qoldiq normalligi p = 0,0004 bilan rad etilgan, kesimlararo bog‘liqlik testi esa p < 0,001 natija bergan. Serial bog‘liqlik uchun keltirilgan Durbin–Watson yorlig‘i panel tuzilmasiga mos va yaroqli natija sifatida qabul qilinmagan, shu bois panel ma’lumotlariga mos serial bog‘liqlik testini qayta bajarish zarurligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, VIF har bir regressorning qolgan regressorlarga nisbatan regressiyasi asosida hisoblanishi kerak; faqat juft korrelyatsiyani VIF deb talqin qilish mumkin emas. Ushbu holatlar besh omilli modelni yakuniy “optimal” model deb e’lon qilishdan oldin takroriy diagnostika zarurligini ko‘rsatadi.

Modelni talqin qilish chegaralari. Besh omilli log-log tenglamada daromad va bandlik elastikliklari nisbatan katta, investitsiya va eksport koeffitsiyentlari esa kichikroq bo‘lib chiqadi. Biroq ushbu koeffitsiyentlarning kattaligi iqtisodiy siyosat choralarining samaradorligini baholash uchun mustaqil mezon hisoblanmaydi. Narx bazasi, hududiy umumiy shoklar, standart xatolar, endogenlik va omillar trayektoriyasi hisobga olinmasdan “daromad eng muhim sabab” yoki “eksportning ta’siri past” kabi sababiy xulosalar berish mumkin emas. Dastlabki yetti omilli FE modeli R^2, RMSE, MAE, AIC va BIC bo‘yicha ayrim mezonlarda besh omilli variantdan yaxshiroq ko‘rinadi; shuning uchun modelni tanlashda soddalik bilan birga diagnostik barqarorlik va tanlanmadan tashqaridagi prognoz sifati ham hisobga olinishi lozim. Panel yondashuvining ilmiy qiymati aynan koeffitsiyent, noaniqlik va diagnostik cheklovlarni birgalikda talqin qilishda namoyon bo‘ladi.

Retrospektiv o‘zgaruvchanlikni talqin qilish. Panel ma’lumotlar bo‘yicha hisoblangan pooled variatsiya koeffitsiyentlari hududlararo va vaqt ichidagi farqlarni bir vaqtning o‘zida aks ettiradi. Shu sababli ular sof hududiy tengsizlik yoki sof vaqt dinamikasi o‘lchovi sifatida bevosita talqin qilinmaydi. Ishlab chiqarish, investitsiya, qurilish, savdo, daromad, bandlik va eksport qatorlarining pooled o‘zgaruvchanligi aynan shu cheklov bilan beriladi. Nominal qiymatlar mavjud bo‘lsa, narxlar o‘zgarishi ham tarqoqlikni oshirishi mumkin; real o‘sishni baholash uchun bir xil narx bazasi yoki deflyator zarur. Bundan tashqari, 2010–2024-yillardagi yillik qator 15 nuqtadan iborat bo‘lib, yillik chastotadagi ushbu ma’lumotlar yil ichidagi mavsumiylikni aniqlash imkonini bermaydi. Shu jihatdan panel modelining kuchli tomoni hududiy individual effekt va vaqt o‘lchamini birgalikda hisobga olish bo‘lsa-da, uning natijasi ham ma’lumot qamrovi va chastotasi bilan cheklanadi. FE, RE va Pooled OLS tanlovi testlar orqali asoslanishi, so‘ng qoldiq diagnostikasi, kesimlararo bog‘liqlik, statsionarlik va standart xatolar masalasi tekshirilishi kerak. Ana shunda koeffitsiyentlar hududiy biznes rivojlanishining shartli bog‘liqliklarini izchil va qayta tekshiriladigan tarzda ifodalaydi.

Hududiy individual effektlarni talqin qilish. FE modelidagi hududiy individual effektlar nazorat qilinayotgan regressorlardan tashqari vaqt bo‘yicha o‘zgarmaydigan kuzatilmagan farqlarni erkin had orqali ushlab qoladi. Ayrim hududlar uchun individual α_i qiymatlari keltirilgan bo‘lsa-da, ularni “institutsional sifat”, “biznes salohiyati” yoki umumiy iqtisodiy reytingning bevosita o‘lchovi deb qabul qilish mumkin emasligi ta’kidlanadi. Log tenglamadagi hududiy erkin had boshqa omillar nazorat qilingandagi shartli bazaviy darajani ifodalaydi. Masalan, bir hududning α_i qiymati boshqasidan yuqori bo‘lishi modelga kiritilmagan barcha ustunliklarni bir xil mazmunda jamlaydi degani emas; u geografiya, tarmoq tarkibi, tarixiy hajm, o‘lchov xususiyatlari va boshqa doimiy omillarning aralash ta’sirini aks ettirishi mumkin. Shu sababli individual effektlar asosida hududlarning qiyosiy reytingini shakllantirishdan oldin ularning iqtisodiy mazmuni alohida aniqlashtirilishi lozim. FE modelining afzalligi aynan shu doimiy farqlarni nazorat qilib, vaqt bo‘yicha omillar bilan Y o‘rtasidagi shartli bog‘liqlikni ajratishga xizmat qilishidir. Biroq umumiy yil shoklari, kesimlararo bog‘liqlik va endogenlik mavjud bo‘lsa, individual effektlarni hisobga olishning o‘zi model spetsifikatsiyasi bilan bog‘liq barcha cheklovlarni bartaraf etish uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun hududiy effekt, vaqt effektlari va qoldiq diagnostikasi birgalikda ko‘rib chiqilgandagina panel natijalari boshqaruv xulosalari uchun yetarli darajada ehtiyotkor talqin qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2010–2024-yillar 14 hududli paneli O‘zbekistonda biznes rivojlanishini ko‘p omilli baholash uchun kengroq axborot bazasini beradi. Model tanlash testlari logarifmik FE yondashuvini ishchi variant sifatida qo‘llab-quvvatlagan, biroq diagnostika kesimlararo bog‘liqlik va qoldiqlar normalligi bo‘yicha qo‘shimcha tekshiruv zarurligini ko‘rsatgan. Besh omilli modelning elastikliklari iqtisodiy mazmunli yo‘nalishlarni ko‘rsatsa-da, ular shartli bog‘liqlik sifatida talqin qilinishi lozim. Shunday qilib, panel modellashtirishda model tanlovi, diagnostika va iqtisodiy talqin yagona jarayon sifatida olib borilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Greene W. H. Econometric Analysis. — 7th ed. — Upper Saddle River : Prentice Hall, 2012. — 1188 p.
2. O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik : statistik to‘plam. — Toshkent : O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, 2025. — URL: https://stat.uz/uz/nashrlar/3656-o-zbekistonda-kichik-tadbirkorlik.
3. Saidova M. X. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi asosida biznes rivojlanish jarayonlarini statistik va ekonometrik tahlil qilish // Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali. — 2025. — Jild 4, № 1. — B. 187–193. — URL: https://laboreconomics.uz/index.php/lehc/uz/article/view/63.
4. Wiggins V., Poi B. Testing for panel-level heteroskedasticity and autocorrelation // Stata Support. — StataCorp. — URL: https://www.stata.com/support/faqs/statistics/panel-level-heteroskedasticity-and-autocorrelation/.
5. Wooldridge J. M. Introductory Econometrics: A Modern Approach. — 5th ed. — Mason : South-Western Cengage Learning, 2013. — 912 p.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz